



ZULFIYAXONIM IJODIDA KOMILLIK

Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-davolash fakulteti 2-bosqich talabasi Abdusattorova Muyassarxon Xayrullo qizi bekboymuyassar@gmail.com



Zulfiyaxonim Isroilova. Ushbu ismni eshitar ekanmiz bahor, muhabbat, hijron kuychisi eng muhimi haqiqiy o'zbek ayoli ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ijodi zamon va makon tanlamagan, yosh-u qariga birdek manzur bo'lgan sevimli shoiramizni - oddiygina inson qalbini yorqin ranglar, haqiqiy timsollar bilan tasvirlay olgan mehnatkash rassom desak mubolag'a bo'lmaydi. "Salqin saharlarda, bodom gulida, binafsha labida, yerlarda bahor" deya ko'ngillarimizga bahor bilan hamnafas, takror va takror kirib keluvchi, jamiki go'zallikni tabiatdan oluvchi va uni xuddi shunday go'zal holida qog'ozga tushiruvchi betakror ijod namoyondalaridan edi. O'zbek xalqining taniqli va ardoqli vakilasi, jurnalist va tarjimon Sharq ayolining jamiyatdagi o'rni uchun kurashgan atoqli jamoat arbobi

Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yil bahorning ilk kunida Toshkent shahrida temirchi oilasida tavallud topgan. Shoira o'zi ona bo'lganidan so'ng onasining kechinmalarini:


Jon tug'uvchi ilohiy qudrat -
Bo'lganingiz onlarga ta'zim!
Azob uchun umrimday uzr...
Barin takror etdim men o'zim,
Ona bo'lmoq – azobli huzur...

deya ifodalaydi. Yosh ijodkor dastlab boshlang'ich maktabda, so'ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. Shoira she'rlarining el aro mashhur bo'lishi shunchaki tasodif emas. U bolaligidan olamga hayrat bilan boquvchi, boshqalar ko'ra olmagan jihatlarni tezda payqaguvchi ilg'or qizaloqligi bilan ajralib turardi. Bundan tashqari, oilasidagi muhit ham qiziquvchan Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alanglatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temirparchasini istalgan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan... Mening onam o'zining ta'bincha, "usti butun – ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos. Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va er-taklarni bilishiiga



aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag‘ishlar, o‘ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo‘jizalar yaratishga qodir, jahonni ko‘zga keng ochuvchi, insonni go‘zallik sari yetaklovchi so‘zga shaydolik hissini mening qalbidan ostonaga hatlab ko‘chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg‘otgan...” Zulfiya she‘riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir.

16 yoshida Xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida tahsil olishni boshlagan Zulfiyaning “Men ish qizi” deb nomlangan ilk she‘ri “Ishchi” jurnalida bosilib chiqqan. Shundan keyin shoira 1931-yilda “Hayot varaqlari” nomli ilk she‘riy kitobi bilan she‘riyat olamiha kirib keldi. Bu kitobni eslab, shoira shunday yozadi: “Bu to‘plamni varaqlab qolganimga ko‘zimga g‘o‘rlik va kamchiliklar yaqqol tashlanib, meni hijolatga soladi”. Garchi bu to‘plamda ijodkorning hali tajribasizligi ko‘zga tashlansada, hayotga zavq-u shavq bilan boquvchi, o‘zining sodda tili bilan bor narsani qog‘ozga qoralay oluvchi jo‘shqin qalbni aks ettiradi.



Shoira 1935-yilda O‘zbekiston SSR Fanlar qo‘mitasi qoshidagi Til va adabiyot instituti aspiranturasiga o‘qishga kirdi va aynan shu yilda xalqimizning sevimli shoiri, bahor kuychisi bo‘lgan Hamid Olimjon bilan turmush qurdi. U Zulfiya ijodida nafaqat sevikli yor, sirdosh do‘st, balki uning ijodida mislsiz ahamiyatga ega ustoz ham bo‘la oldi. Hamid Olimjon Zulfiyaning she‘rlarini diqqat qilgan o‘qir, uning yutuqlari va kamchiliklari haqida gapirar, lekin hech qachon ularga qalam tekkazmasdi. U har gal shoira she‘rlarini o‘qib ularda sevganining qalbi aks etganini aytardi. Vafodorining suyukli yori bo‘lgan Zulfiya 1938-yilda aspiranturani tamomladi. Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli bir umr jurnalistika va nashriyot sohasida ishladi. 1938-1940-yillarda Yoshlar va o‘smirlar adabiyoti nashriyotida muharrir, 1941-1950-yillarda O‘zbekiston davlat nashriyotida bo‘lim



mudiri, 1950-1953-yillarda “Saodat” jurnalida bo‘lim mudiri, 1954-1985-yillarda esa qariyb o‘ttiz yil mobaynida bosh muharrir bo‘lib ishladi. “Hayot varaqlari” she‘riy to‘plamidan so‘ng “Temiroy”(1934), “She‘rlar”, “Qizlar qo‘shig‘i”(1939) kabi she‘riy kitoblarini ona Vatan va uning dala, cho‘llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, traktorchi qizlarning qaynoq hayolotlariga bag‘ishlaydi. Zulfiyaning urush yillarida yozilgan “Uni farhod der edilar”(1943), “Hijron kunlarida”(1944) kabi to‘plamlari uni peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan dalolat edi. Bu to‘plamdagi she‘rlar Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g‘alabaga ishonch, yorga sadoqat ruhida yaratilgani bilan xarakterlidir. Shoiraning “Mening Vatanim”, “Qo‘limda qurol-u ustimda shinel”, “Bizni kut” kabi umidbaxsh she‘rlari urush davri o‘zbek she‘riyatining jangovor ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan joy olgan.

1940-yillar oxirida e‘lon qilingan Sovet Ittifoqining san‘at va adabiyot to‘g‘risidagi qarorlari o‘zbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya badbin kayfiyatlar – pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida ta‘na toshlari ostida qoladi. Shundan keyin u, boshqa qalamkashlar singari “davr g‘oyalari”ni ifodalovchi she‘rlar yozishga o‘tdi. Ko‘p o‘tmay, o‘zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she‘r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo‘lamsligi uchun kurashdi. 1944-yildagi mudhish voqea, ya‘ni shoiraning qalb qo‘ri, vafodor yori, do‘sti va maslakdoshi Hamid Olimjondan ayrilishi uning ijodida keskin burilish yasadi. U endi Vatan, tabiat, go‘zallik va tinchlikni madh etibgina qolmay, ayriliq va hijron kuychisiga ham aylandi. Balki, Zulfiyani Zulfiya qilgan ham shu ayriliq ko‘yida va lekin vafo-sadoqatga ko‘milgan she‘rlar edi. Hamid Olimjon vafotidan so‘ng shoira turmush o‘rtog‘ining ijodini ham davom ettirishga, uning xotirasini abadiylashtirishga astoydil harakat qildi va bunga erishdi ham.

Hijroning qalbmida, so‘zing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!




Shoiraning urushdan keyingi yillarda yaratilgan “Dalada bir kun” (1948), “Tong qo‘shig‘i” (1953) kabi she‘rlar turkumi, shuningdek, “Hulkar” (1947), “Men tongni kuylayman” (1950), “Dugonalar bilan suhbat” (1953), “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Gullarim” (1959), “Tanlangan asarlar” (1959), “Hayot jilosi” (1961), “Kuylarim sizga” (1963),



“She’rlar” (1963), “Kuylarim sizga” (to’ldirilgan 2-nashri, 1965), “O’ylar” (lirika, 2-nashri, 1969), “Lolaqizg’aldoq” (1970), “Quyoshli qalam” (1971), “Visol” (1972), “Asarlar” (2 tomlik, 1-jild, 1974, 2-jild, 1975), “Yillar, yo’llar...” (1975) kabi to’plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko’rsatayotgan kishilar hayoti jo’shib kuylanadi. Uning “So’roqlaydi shoirni she’rim” (1960), “Oydin” (1953), “Quyoshli qalam” (1967) kabi ocherk va dostonlari Hamza, Oybek, Oydin, Hamid Olimjon kabi ustozlarning yorqin xotiralariga bag’ishlangan. Zulfiya “O’ylar”, “Shalola” kabi she’riy to’plamlari uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo’lgan (1970).

1950-yillarning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o’tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko’pgina mamlakatlarida bo’ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo’shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. „Mushoira“, „O’g’lim, sira bo’lmaydi urush“, „Qozog’iston o’lanlari“, „Men chizolmagan surat“ singari she’rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she’rlarida tasvir etilayotgan hayot ko’lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yillardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo’ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. „O’ylar“(1965) she’riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili „Visol“(1972), „Yillar, yillar...“(1975) she’riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so’nggi safariga bag’ishlangan „Quyoshli qalam“(1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bag’ishlangan turkum she’rlar ham yozdi („Lolaqizg’aldoq“, 1975). Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o’rganish va nashr etish ishiga bag’ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning „Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod“ dostoni asosida qo’g’irchoq teatri uchun „Semurg“ pyesasi (S. Somova bilan hamkorlikda) hamda „Zaynab va Omon“ operasi librettosini yozdi. Mashhur shoira – o’ziga xos she’riyati bilan millionlab kitobxonlar qalbini rom etgan g’o’zal qalb egasi Zulfiyaxonim 1996-yilning 1-avgustida vafot etdi.



Serqirra ijodkor tarjimonimiz A. S. Pushkin, M. Y. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, M. Karim, P. Amrita, Y. Bagryana va boshqalarning asarlarini o’zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiyaning o’n beshga yaqin majmualari rus tilida chop etilgan. Uning asarlari ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, koreys, arab, fors, tojik, arman, qirg’iz, tatar, turkman, boshqird, ozarbayjon va boshqa



tillarga tarjima qilingan. shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya xalqaro „Javaharlal Neru“ (1968), „Nilufar“ (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti (1970) laureati. Shuningdek, u Bolgariyaning „Kirill va Mefodiy“ (1972) ordeniga sazovor bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoira Zulfiya betakror iste’dodi, Vatanga muhabbati, olijanob insoniy fazilatlarini, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e’zozga sazovor bo‘ldi. Toshkentdagi ko‘chalardan biriga uning nomi berilgan hamda 2008-yil 1-may kuni Zulfiya haykali o‘rnatilgan. O‘zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e’tiborga olib 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan “Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti”ni ta’sis etdi. Bu davlat mukofoti har yili 14 ta 14 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan, o‘z ustida izlanishda charchamayotgan iqtidorli qizlarga beriladi. Mukofotning har biriga eng kam oylik ish haqqining 50 baravari miqdorida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining 1-Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek “Uning jahon minbarlarida yangragan she’rlari sharq ayolining aql-u zakovati, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she’riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan” Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam Zulfiyaxonim o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega shoira bo‘lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha olijanob xislatlariga ega ayol bo‘lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo‘ldimki, o‘zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lmasin, unda bir qator tom ma’nodagi ijodkorlar etishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yuzlulardan biri bu Zulfiyaxonim bo‘lgan. Bugungi istiqbol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg‘a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o‘zini yo‘qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov M. Quyoshli she’riyat ijodkori, Toshkent, 1986
2. Ma’naviyat yulduzlari-T:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001; 407 b
3. Mirzaliev S, Shokirova R. O‘zbek adiblari. Toshkent :”Yozuvchi”jurnali. 2000
4. Qayumov L. Shoira Zulfiya. Toshkent, *O‘zadabiy nashr*, 1965
5. “Xalq so‘zi” gazetasi: 1191; 26.04.2018
6. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985